

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60810900-Agronomiya (anorchilik) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari

ЎЗР ОУМТВ
Буйруқ № 367
21 * 08 2023

Termiz tumani-2023

ISHLAB CHIQILGAN:

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti;

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil « 21 » avgust dagi 367 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60810900- Agronomiya (anorchilik) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi...</i>	4
1.1.	Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1.	<i>60810900-Agronomiya (anorchilik) ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi.....</i>	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60810900-Agronomiya (anorchilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....</i>	4
1.2.1.	<i>60810900- Agronomiya (anorchilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....</i>	4
1.2.2.	<i>60810900- Agronomiya (anorchilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....</i>	4
1.2.3.	<i>60810900- Agronomiya (anorchilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....</i>	5
1.2.4.	<i>60810900- Agronomiya (anorchilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....</i>	5
2.	<i>60810900- Agronomiya (anorchilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....</i>	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	8
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	8
2.3.2.	<i>60810900- Agronomiya (anorchilik) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.....</i>	8
2.3.3.	<i>60810900 - Agronomiya (anorchilik) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....</i>	9
	Bibliografik ma'lumotlar.....	10
	Kelishuv varag'i.....	11

1. 60810900-Agronomiya (anorchilik) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60810900-Agronomiya (anorchilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 60810900-Agronomiya (anorchilik) ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi *60810900-Agronomiya (anorchilik)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun ma'sul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60810900-Agronomiya (anorchilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60810900-Agronomiya (anorchilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60810900-Agronomiya (anorchilik) bakalavriat ta'lim yo'nalishi – Qishloq xo'jaligi ta'lim sohasigagi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'lib, yer, suv energitik va moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanishni amalga oshirish orqali anor va anor mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash sanoati bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60810900-Agronomiya (anorchilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

- davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (agrofimlar), klasterlar, kooperatsiyalar, ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalarda;

- anorchilik sohasidagi ishlab chiqarish jarayonlarida;

- anorchilik sohasidagi ilmiy tadqiqot jarayonlarida;
- anorchilik korxonalari va tashkilotlari hamda davlat boshqaruv organlari boshqaruv tizimida;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholashda.

60810900-Agronomiya (anorchilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. 60810900-Agronomiya (anorchilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- tashkiliy-boshqaruv;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;
- axborot-tahliliy faoliyat;
- tadbirkorlik;
- loyiha-texnologik faoliyat;
- texnologik ishlab chiqarish;

1.2.4. 60810900-Agronomiya (anorchilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60810900-Agronomiya (anorchilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida qo'llanilayotgan zamonaviy agrotexnologiya va texnik vositalardan foydalanishning samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblash va baholash;
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy va mehnat resurslarini rejalashtirish;
- ishlab chiqarish jarayonini boshqarish;
- boshqaruv qarorini qabul qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimlaridan foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va hayotiy faoliyat xavfsizligi, texnika xavfsizligi talablari asosida ishlab chiqarish jarayonlarini monitoringini yuritish;
- kasbiy muammolar yechimini topish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar xilma-xilligi sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;
- birlamchi ishlab chiqarish ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

Ishlab chiqarish texnologik va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- anorni yetishtirish va hosilini yig'ishtirishda texnologik kartalardan foydalanish;
- dehqonchilikda yerlarni meliorativ holatini yaxshilash tadbirlarini qo'llash;
- dehqonchilikda samarali va resurs tejankor faoliyatni tashkil eta olish;
- anorni yetishtirish va hosilini yig'ib olish bo'yicha ishlab chiqarish jarayonlari, agrotexnik tadbirlarning bajarilishi sifatini nazorat qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda keng qo'llash;
- ilg'or texnologik jarayonlardan foydalanish;
- ekinlar yetishtirishning ilmiy asoslangan tizimlarni qo'llash va tavsiya qilish;
- yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va ulardan oqilona foydalanish;
- tabiiy resurslarni muhofaza qilish va hayot faoliyati xafsizligi qoidalariga rioya qilish.
- xizmat ko'rsatish sohasida meyoriy- huquqiy hujjatlardan foydalana olish;
- qishloq xo'jalik ekinlarini parvarishlash, agrotexnik tadbirlarni o'tkazish, ekinlarni joylashtirish bo'yicha servis xizmati ko'rsatish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash bo'yicha texnologlarga maslahatlar berish.

Axborot tahliliy faoliyatida:

- agrotexnik tadbirlarni bajarish jarayonlari sifatini nazorat qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda keng qo'llash;
- ilg'or texnologik jarayonlarni qo'llash;
- ilmiy asoslangan tizimlarni qo'llash va tavsiyanomalar berish;
- yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va oqilona foydalanish;
- tabiiy resurslarni muhofaza qilish va hayot faoliyati xavfsizligi qoidalarini ta'minlash.

Ilmiy - tadqiqot faoliyatida:

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlash va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- muammolarni hal etishga va qaror qabul qilishga tayyorgarlik, bilimlarni amaliyotda qo'llash, ish samaradorligi va sifatiga javobgarlik;
- dala tajribalarida variantlar va takrorlanishlarni joylashtirish, kuzatuvlar o'tkazish, ilmiy ish hisoboti uchun ma'lumotlar tayyorlash;
- qaror qabul qilish, bilimlarni amaliyotda qo'llash, ish samaradorligi va sifatiga javob berish;
- respublika va xorijda dala ekinlarini yetishtirishga oid chop etilgan ilmiy-texnik axborotlar manbalarini o'rganish;
- ilmiy - tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;
- mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan malumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etishda qatnashish.

Loyiha - texnologik faoliyatida:

- qishloq xo'jalik ekin maydonlarini tashkil etishni loyihalashtirish uchun zaruriy boshlang'ich materiallar to'plash;

- anor yetishtiriladigan yerlardan foydalanish loyihasini ishlab chiqish, biologik materiallarni va zaruriy ishlab chiqarish resurslarini tayyorlash;
- anorni yetishtirishda texnologik kartasining agrotexnika qismini ishlab chiqish;
- ixtisoslikdan kelib chiqan holda mahsulotlar sifatini baholashda chet el va vatanimizda qo'llanilayotgan usullarni amalda qo'llay olish;
- loyihalashtirishda zamonaviy axborot-kommunikatsion, informatika va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish;
- faoliyat natijalarini tahlil va sintez qilish, tashkil etish va rejalashtirish, baholash, fundamental, umumkasbiy va amaliy bilimlardan foydalanish qobiliyati va ularga tayyorgarlik;
- mustaqil ishlash qobiliyati, ish jarayonlarini identifikatsiyalash va mahoratdan foydalanish;
- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;
- amaliyotda axborot texnologiyalarining halqaro va kasbiy standartlarni, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash.

Tadbirkorlik faoliyatida:

- soha doirasida yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;
- soha doirasida biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

2. 60810900-Agronomiya (anorchilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;
- strategik tahlil qilish, raqobatbardoshlikni ta'minlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- anorni yetishtirish va hosilni yig'ishtirish texnologik kartadan foydalanish;
- anorchilik sohasida samarali va resurs tejankor faoliyatini tashkil eta olish;

- anor yetishtirish va hosilni yig'ib olish bo'yicha ishlab chiqarish jarayonlari, zamonaviy agrotexnik tadbirlarning bajarilishi sifatini nazorat qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda keng qo'llash;
- ilg'or innovatsion texnologik jarayonlarni qo'llash;
- ilmiy asoslangan tizimlarni qo'llash va tavsiya qilish;
- yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va oqilona foydalanish;
- tabiiy resurslarni muhofaza qilish va hayot faoliyati havfsizligi qoidalariga rioya qilish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar - bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlar - ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqirlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

ishlab chiqarish texnologik amaliyoti -majburiy va tanlov fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

bitiruv ishi oldi amaliyoti – bitiruv malakaviy ishi uchun dastlabki ma'lumotlarni to'playdi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: anorchi, mevachi, agronom, agrotexnolog.

2.3.2. 60810900-Agronomiya (anorchilik) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5280	176
Tanlov fanlar	1140	38
Malakaviy amaliyot	660	22
Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4

2.3.3. 60810900-Agronomiya (anorchilik) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T/r	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklari va faoliyati turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	5280	176	
1.01	O'EYTB1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	DINB1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.03	FALB1504	Falsafa	120	4	5
1.04	XJTNB1108	Xorijiy til	240	8	1,2
1.05	O'T O'SQB1204	O'zbek (rus) tili: O'zbek tilini sohada qo'llash	120	4	2
1.06	JMSB1104	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	1
1.07	OMTB1204	Oliy matematika	120	4	2
1.08	ANFKBKB1106	Analitik, fizkolooid va biokimyo	180	6	1
1.09	BO'FZB1108	Botanika va o'simliklar fiziologiyasi	240	8	1,2
1.10	QXAKTB1104	Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar	120	4	1
1.11	QXMB1204	Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish	120	4	2
1.12	MTKB1104	Mutaxassislikka kirish	120	4	1
1.13	BIOGB1104	Biologiya va genetika	120	4	2
1.14	TPAKB1308	Tuproqshunoslik va agrokimyo	240	8	3,4
1.15	DEHB1310	Dehqonchilik	300	10	3,4
1.16	MELYTB1310	Melioratsiya va yer tuzish	300	10	3,4
1.17	ANBIOB1306	Anor biologiyasi	180	6	3
1.18	QXBTMB1308	Qishloq xo'jalik biotexnologiyasi va mikrobiologiya	240	8	3,4
1.19	MEVSABB1512	Mevachilik va sabzavotchilik	360	12	5,6
1.20	ANZKQB1508	Anorni zararkunanda va kasalliklardan himoya qilish	240	8	5,6
1.21	ANETEB1510	Anor yetishtirish texnologiyasi	300	10	5,6
1.22	ANSNAVB1606	Anor seleksiyasi va navshunosligi	180	6	6
1.23	ESSTB1710	Ekinlarni sug'orish va sug'orish tizimlari	300	10	7,8
1.24	O'SHPXB1712	O'simlikshunoslik va paxtachilik	360	12	7,8
1.25	DEYNTB1704	Dala ekinlarini yetishtirishda noan'anaviy texnologiyalar	120	4	7
1.26	QXMSSB1804	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini standartlashtirish va sertifikatlash	120	4	8
1.27	ANSQITB1806	Anorni saqlash va qayta ishlash texnologiyasi	180	6	8
2.00		Tanlov fanlar	1140	38	3, 4, 5, 7, 8
		Jami	6420	214	
		Malakaviy amaliyot	660	22	2, 4, 6, 7
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4	8
		Jami	780	26	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UO*K 63+634

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Agronomiya, anorchilik, nav, tur, ko'chatchilik, pavandtag, payvandust, payvantlash, daraxt, shox-shabba, novda, barg, shakl berish, butash, sug'orish, o'g'itlash, meva-hosil, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavryatning asosiy o'quv rejasi va fan dasturi, o'quv jarayoni, loyiha texnologik, pedagogik, ilmiy izlanish, servis xizmati, baholash, sifat nazorati, mustaqil ta'lim, texnologik ishlab chiqarish, tashkiliy boshqaruv, malaka amaliyoti, diplom ishi, davlat atestatsiyasi, mustaqil ta'lim, o'quv fanlar blogi, mundarija, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ishlab chiqarish, lohihalash, ilmiy tadqiqot jarayonlari.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLIGAN:

Termiz agrotekhnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti



Rektor A.S.Jurayev

2023 yil « 10 » 07
M.O'.

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi



Direktor Sh.Yakubov

2023 yil « 21 » 08
M.O'.

Toshkent davlat agrar universiteti
Birinchil prorektor S.Ya. Islamov



2023 yil « 20 » 07
M.O'.

Akademik M.Mirzayev nomidagi
Bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik
ilmiy-tadqiqot instituti



Direktor U.Abduganiyev

2023 yil « 18 » 08
M.O'.

Guliston davlat universiteti

Rektor M.T.Xodjiyev



2023 yil « 18 » 07
M.O'.

TERMIZ AGROTEKNOLOGIYALAR VA INNOVATSION RIVOJLANISH INSTITUTI
60810900-Agronomiya (anorchilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari va o'quv
rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar
iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Termiz tumani

“10” 07 - 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Termiz agroteknologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti rektori v.b., prof. A.S.Jurayev, Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori, prof. S.Y.Islamov, Guliston davlat universiteti rektori, prof. M.T.Xodjiyev birgalikda TerAIRda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60810900 - Agronomiya (anorchilik) ta'lim yo'nalishi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi “Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida”gi PQ-279-son Qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Termiz agroteknologiyalar va innovatsion
rivojlanish instituti rektori v.b., professor


A. Jurayev

Toshkent davlat agrar universiteti
birinchi prorektori, professor


S. Islamov

Guliston davlat universiteti
rektori, professor


M. Xodjiyev

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish institutida ishlab chiqilgan 60810900 - Agronomiya (anorchilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o'quv rejasiga

TAQRIZ

60810900 - Agronomiya (anorchilik) ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5847-son farmoni, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda horij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

60810900 - *Agronomiya (anorchilik)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, dala va laboratoriya amaliyotlariga, amaliy mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashtirish sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan yo'nalishi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasasi sifatida Guliston davlat universitetining talab va takliflari inobatga olingan.

60810900 - Agronomiya (anorchilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga etkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

Guliston davlat universiteti
rektori, professor



M.Xodjiyev

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish institutida ishlab chiqilgan 60810900-Agronomiya (anorchilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar bo'yicha yangilangan malaka talablari va o'quv rejasiga

TAQRIZ

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish institutida Agronomiya (anorchilik) ta'lim yo'nalishi malaka talablarini ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi "2019–2023 yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4358-sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining 2018-yil 3-apreldagi 5002-sonli topshirig'i bilan tasdiqlangan tamoyillarga amal qilingan.

60810900- Agronomiya (anorchilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasini xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy echimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, dala va laboratoriya amaliyotlariga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashtirish sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt byudjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, 60810900-Agronomiya (anorchilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan malaka talablari va o'quv rejasini tasdiqlashni taklif qilaman.

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti Meva-sabzavotchilik, uzumchilik va issiqxona xo'jaligi kafedrasini mudiri, q.x.f.d., professor



M.X.Aramov